

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

ALISHER NAVOIY AN‘ANALARI AVAZ O‘TAR IJODIDA

Salomat Matkarimova

filologiya fanlari nomzodi, dotsent,

Urganch davlat universiteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri

E-mail: salomatmatkarimova@urdu.uz

Annotatsiya: *Ushbu maqolada qofiyaga doir Alisher Navoiy an‘analarining Avaz O‘tar ijodida davom ettirilishi masalasi tahlilga tortilgan. Chiqarilgan xulosalar shoir ijodidan keltirilgan misollar yordamida asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *Alisher Navoiy, qofiya, an‘ana, bayt, Avaz O‘tar.*

Аннотация: *В данной статье анализируется продолжение рифмованных традиций Алишера Навои в творчестве Аваз Утара. Сделанные выводы основаны на примерах из произведений поэта.*

Ключевые слова: *Алишер Навои, традиция, рифма, бейт, Аваз Утар.*

Annotation: *This article analyzes the continuation of the rhyming traditions of Alisher Navoi in the works of Avaz Utar. The conclusions drawn are proven using examples from the works of poet.*

Key words: *Alisher Navoi, rhyming traditions, bayt, Avaz Utar.*

Alisher Navoiy ijod laboratoriyasi, betakror badiiy yaratmalaridan ibrat-u ilhom olib, unga hamradif va jo‘rovoz bo‘lmoq istagida qalam tebratgan shoirlar ijodida qofiya masalasida ham Navoiydan o‘rganish, shuning barobarida, yangilik yaratishga urinish holatlari kuzatiladi. M.Akbarovanning “Alisher Navoiy g‘azallarida qofiya” mavzusidagi tadqiqot ishida A.Navoiy g‘azallarida qo‘llanilgan qofiya turlarining Ogahiy g‘azallaridagi istifodasi qiyosan o‘rganilgan. Avaz O‘tar ijodi bo‘yicha qilingan tadqiqotda shoirning ijodida qofiyaga alohida to‘xtalib o‘tilgan [6]. Quyida Alisher Navoiy an‘analarining davom ettirilishini Avaz O‘tar ijodida qo‘llanilgan qofiyalar misolida tahlilga tortishga jazm qildik.

Sof turkiy so‘zlardan foydalanib qofiya yaratishga bo‘lgan intilish Navoiyning qofiya qo‘llashdagi mahorati va novatorligi sifatida alohida qayd qilinadi [5, 439]. Ustozning ushbu an‘anasini Xorazm shoirlari ijodida ham izchil davom ettirilgani barobarida yangiliklar bilan boyitib borilganini ko‘ramiz. Avaz O‘tarning quyidagi g‘azalida *yoʻz, soʻz, oʻz* kabi sof turkiy so‘zlar qofiyaga olingani buni dalillaydi:

Ahbob, bordur mug‘tanam ishrat qilurg‘a fasli yoʻz,

Bir yoshgina dilbar bila aylab tarab soʻzini soʻz[2, 72].

Avazning novatorligi shundaki, Navoiy qo‘llagan sof turkiy so‘zlar bilan birga shevaga xos so‘zlarni qofiya tizimiga olib kirgan. Quyidagi baytda *to‘fon, jonon* so‘zlariga odatda salbiy mazmunda qo‘llanadigan so‘zga erkalash qo‘shimchasini qo‘shish bilan ijobiy ma‘no kasb etgan *falonijon* so‘zini ohangdosh sifatida keltiradi:

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

*G‘amim yo‘q bo‘lg‘usidur g‘amgusorim bo‘lsa bu soat,
Kulib o‘ynab, qilib ishva **falonijon** tong otguncha [2, 46].*

Shuningdek, Avazning “Mehri jamoling bo‘lg‘oli to olam ichra nurfosh” boshlanmali g‘azalida qofiyaga olingan 8 ta so‘zning 2 tasi forscha(nurfosh, fosh), qolgan 6 tasi sof turkiychadir (bosh, quyosh, tosh, qosh, yosh, talosh).

Ba‘zi o‘rinlarda o‘g‘uz lahjasiga xos jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasining –a shaklida ishlatilishidan qofiya yaratishda unumli foydalanilgan:

*Tarahhum qil mane mahzuni **zora**,
Ayo ko‘ngli qotig‘, monandi xora...
Topib komin Avaz, olamda ahbob,
Osilsun dushmanimning xayli **dora** [2, 39].*

Kuzatiladiki, zorga, dorga so‘zlari ohangdoshlikni yuzaga keltirish uchun zora, dora, shaklida qo‘llanilgan. Shuningdek, Avaz ijodida so‘zlarning shevadagi talaffuzi asosida qofiyaga olish holatlari ham kuzatiladi. Xususan, quyidagi bayt bu jihatdan xarakterli:

*Jamoling partavi nuri tajalliy,
Xati la‘ling bu so‘zimning **guvosi** [2, 95].*

Ushbu baytda “guvohi” degan so‘z g‘azaldagi judosi, havosi kabi so‘zlarga ohangdoshlik hosil qilishi uchun shevaga xos talaffuzda “guvosi” tarzida qo‘llanilgan.

Navoiyning “G‘aroyib us-sig‘ar” devonidagi “be” bilan tugallangan g‘azallarida *qayg‘urub, kuydurub, bilgurub, mungrashib, yondashib, tarqashib* kabi fe‘l-qofiyalarning, asosan, qo‘shimcha hisobiga vujudga keltirilganligini kuzatish mumkin. Bu ma‘muliyy qofiyadir. Bunda “qofiyadosh so‘zlarning asoslari emas, qo‘shilgan shakllar ohangdorlikni ta‘minlashga xizmat qiladi” [7, 152]. Shu kabi Avazning quyidagi g‘azalida ham *oz, do‘n, osh, sin, kul, yoz* kabi fe‘llar –*dur* nisbat qo‘shimchasi hisobiga ohangdoshlik kasb etgan:

*Nigorimni, fig‘onkim, g‘ayr afsun birla **ozdurmish**,
Ki ya‘ni ko‘nglini bu lahzada fo‘loda **do‘ndurmish**.
Raqibi shumlar xaylig‘a ul sho‘xi jafogustar,
Bu soat ichra lutf-u iltifotni haddin **oshdurmish** [2, 208].*

Ushbu baytlarda qofiya uchun tanlangan so‘zlarning barchasi fe‘l so‘z turkumiga mansub so‘zlardan iborat bo‘lib, ularda qo‘shimchalar yordamida ohangdoshlik vujudga keltirilgan va “r” harfi barcha qofiyadosh so‘zlar uchun raviy vazifasini o‘tagan.

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

Alisher Navoiy asarlarida qofiya bilan bog‘liq ko‘plab san‘atlar qatorida qofiya tajnisi ishlatiladi. Qiyidagi baytda qofiyaga olingan “o‘t chaqilib” va “o‘tcha qilib” so‘zlari tajnisi yuzaga keltirgan:

*Xanjarining barqidin o‘t chaqilib,
Raxshidagi tezliq o‘tcha qilib [1, 47].*

Bu kabi qofiyalanayotgan so‘z shakldoshligiga asoslaniladigan tajnis qofiyaning Avaz ijodida ham qator namunalarini ko‘rish mumkin. Xususan, quyidagi baytlar bu jihatdan xarakterli:

*Duo olg‘usi chunki ushshoqdin,
Yetushmish jamolig‘a mundin kamol...
Agar istasang komronlig‘ mudom,
Duoyi bad, ey kimsa, eldin kam ol [2,111].*

Ko‘rinadiki, shoir “kamol” va “kam ol” so‘zlarini ohangdosh so‘zlar tizimida keltirar ekan, ayni paytda mantiqiy izchilikni ham ta‘minlagan. “Navoiyning... qofiyadagi so‘zlari shaklan yetuk bo‘lishdan tashqari ma‘nan ham yetuk bo‘ladi” [4,95]. Qofiyadagi so‘zlar til qoidalari, uslub talabi va bayt mazmuniga to‘la muvofiq kelishi Navoiyning yuksak mahoratining dalilidir. Shu kabi Avazning yuqorida tahlilga tortilayotgan baytlarida ham navoiyona mahorat nishonasini ko‘ramiz. Shoir dastlabki baytda “duo” va “kamol” so‘zlariga murojaat qilib, oshiqqlarning duoi xayri sabab ma‘shuqaning jamoli kamolga yetganligini yozadi. Navbatdagi baytda yana “duo” va “kam ol” so‘zlari birgalikda keladi. Ammo endi duoning mazmuni teskari tomonga o‘zgargani kabi qofiya so‘zning ham mundarijasi shunga mos ma‘noda beriladi: baxtli bo‘lmoq, kamolga yetmoq istasang, eldan duoi badni kam ol. G‘azalda tajnisi yuzaga keltirgan so‘z birikmasi va sodda so‘zni qofiyaga olish holati bir bayt doirasida qo‘llanilgan holatlarni ham kuzatish mumkin.

“Alisher Navoiy asarlarida shunday baytlar ham borki, birinchi misradagi so‘z birikmalariga ikkinchi misradagi xuddi shu tipdagi so‘z birikmalari qofiyalanib keladi” [4, 89]. Buni Avaz g‘azallarida ham uchratamiz:

*Sho‘xlar ichra manga ul dilbari dildor bas,
Gohi andin bo‘saye, gah davlati diydor bas. [2, 169].*

Avaz ijodida bir bayt doirasida ichki qofiyalar asosida musajja‘ qofiya yaratish kuzatiladi:

*Hosidlig‘ aylab bu zamon, kim berdi, der ahli jahon,
Kiysa yangi xil‘at agar qashshoq-u qallosh ustina [2, 36].*

Ushbu baytning dastlabki misrasida o‘zaro qofiyalangan 2 ta bo‘lak muayyan to‘xtam va ritmik ohangdorlikni ta‘minlagan. Unda qofiyaga olingan sodda va

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

tushunarli so‘zlar yengil, ravon, o‘ynoqi ohangni yuzaga chiqargan va ayni paytda asarda g‘azal g‘oyasining yorqin aks etishiga xizmat qilgan.

Alisher Navoiy ijodidagi kabi Avaz g‘azallarida ham zulqofiyatayn - qo‘sh qofiyadan foydalanilgan. Quyidagi baytda ushbu san‘atning qo‘sh qofiya bir joyda keladigan mutakarrin qofiya turi istifoda etiladi:

*Vafo-u mehr erur **borho xisol** manga,*

*Istongki, yetsa agar **ishq aro kamol** manga [2, 30].*

Quyidagi baytda zulqofiyataynning ikkinchi turi - bir qofiya misra boshida, ikkinchisi misra oxirida (ba‘zan radifdan oldin) keladigan mahjub qofiya kuzatiladi:

*Sango husn ichra **yaktolig‘** musallam,*

*Mango **ishqingda shaydolic‘** musallam [2, 115].*

Avaz ijodida zulqavofi‘, tarsi‘ san‘atlarining ham mukammal namunalari kuzatiladi. Shuningdek, “muborak” radifli g‘azalda **ziyo muborak – nomuborak** tarzida radif bilan qofiya bir so‘zda uyg‘unlashganini ko‘rish mumkin.

Xulosa qilganda, Alisher Navoiyning qofiyaga doir an‘analari Avaz O‘tar ijodida izchil davom ettirilgan va yangiliklar bilan boyitilgan. Qofiya bilan bog‘liq san‘atlardan ham unumli va o‘rinli foydalanilgan.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 7-жилд. –Т.: Фан, 1991. – 422 б.
2. Авaz Ўтар. Сайланма. –Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1984. -215 б.
3. Акбарова М. Алишер Навоий ғазалларида қофия. –Т.: Фан, 1993. – 25 б.
4. Рустамий А. Навоийнинг бадиий маҳорати.- Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. -215 б.
5. Сирожиддинов Ш., Юсупова Д., Давлатов О. Навоийшунослик. – Т.: Tamaddun, 2018. -520 б.
6. Юлдашева М. Авaz шеърятада анъана ва маҳорат. Номз.дисс. - Т.: 2006. - 147 б.
7. Ҳамроева О. Темурийлар давридаги поэтикага доир рисоаларда қофия илмининг қиёсий таҳлили. –Т.: BOOKMANY PRINT, 2022. -254 б.